

O'ZBEKISTONDA TARMOQLARARO KLASTERLARNI TASHKIL ETISHDA DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Sharipova Zulayho

**Ma'mun universiteti NTM Iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda tarmoqlararo klasterlarni tashkil etishning zarurligi, ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье описаны необходимость, важность, особенности и основные направления государственной политики организации межотраслевых кластеров в Узбекистане.

Abstract. This article describes the necessity, importance, specific features and main directions of the state policy of the organization of inter-industry clusters in Uzbekistan.

Kalit so'zlar. Klaster, tarmoqlararo klaster, davlat siyosati, me'yoriy-huquqiy hujjat, mahsulot, hudud.


Ключевые слова. Кластер, межотраслевой кластер, государственная политика, нормативно-правовой документ, продукт, регион.

Key words. Cluster, cross-sectoral cluster, state policy, legal document, product, region.

O'zbekiston Respublikasida klaster faoliyati barcha iqtisodiyot tarmoqlari rivoji bilan bevosa bog'liq. Bu borada mamlakatimizda qator me'yoriy-hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239-son qarori (14.03.2019-y.), "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4549-son qarori (11.12.2019-y.), "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy

etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4633-son qarori (06.03.2020-y.), “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4634-son qarori (06.03.2020-y.), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Boshoqli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta’minlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 806-son qarori (24.09.2019), “O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy urug‘chilik klasterlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 512-son qarori (18.06.2019-y.), “Paxta xom ashyosini yetishtirish va qayta ishslash kooperatsiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 398-son qarori (22.06.2020-y.) shular jumlasidandir [3].

Darhaqiqat, qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlardan asosiy maqsad bo‘lib, O‘zbekistonda tarmoqlararo klasterlarni shakllantirish omillarini aniqlash va ularning klasterlarni rivojlanishiga bo‘lgan ta’sirini aniqlash bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimizda tarmoqlararo klasterlarni tashkil etish asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lib qaralib, uni amalga oshirish bevosita davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib sanaladi. Klasterlarni tashkil etishda davlat siyosatini amalga oshirish ketma-ketlikka asoslanishi lozim (1-rasm):



1-rasm. Klasterlarni tashkil etishda davlat siyosatining yo'nalishlari¹

Mazkur rasmga asosan, innovatsion iqtisodiyotga asoslangan sharoitda klaster nazariyalari asosida ishlab chiqiladigan klaster siyosati klaster tashabbusi va texnologiyalariga asoslanib, klaster uyushmalarining ishtiroki bilan klasterlashtirish joriy qilinadi. Shunga ko'ra, mamlakatimiz hududlarida mahsulot yaratuvchi barcha soha va korxonalarning iqtisodiy faoliyati klaster asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Xususiy lashtirish ishlari yakunlanib, respublikamiz bozorlarida xususiy korxonalar, jumladan xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalar asosiy o'rinni egallay boshlaganda, tarmoqda klaster usulida tashkil etiladigan korporativ formadagi kompaniyalarni tashkil etish maqsadga muvofiq [1].

Bugungi kunga kelib, mamlakatimiz hududlarida tarmoqlararo klasterlarni tashkil etish masalasi davlat siyosatining ustuvor masalasiga aylanib, har bir hududlarga tadbiq qilinmoqda. Xususan, hududlarda hokimlarga klasterlarni tashkil etish vakolati berildi. Oldingi, paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi tugatildi. Shunga muvofiq, mamlakatimizda klasterlar faoliyati O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vaziri bilan kelishilgan holda viloyat hokimlarining qarorlari bilan tashkil etiladi. Aniqroq qilib aytganla, paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etishning yangi tartibi joriy etiladi. Ushbu masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilingan PF-205-son Farmonida o'z aksini topgan [2]. Farmonga muvofiq, mamlakatimizda klasterlarni tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun yangi talablar va tartib joriy etildi.

Shuningdek, mamlakatimizda klasterlar faoliyatini tashkil etish istagida bo'lgan talabgorlar ochiq va shaffof onlayn tanlov asosida tanlab olinadi. Hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi klasterlar reestrini yuritadi va ushbu reestrni o'zining veb-saytida doimiy e'lon qilib boradi. Vazirlik tomonidan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi bo'yicha klasterlarning avtomatlashtirilgan reytingini yuritish dasturini yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2020-yil 12-avgustda hududlarda sanoatni rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni

¹ Manba: Muallif ishlanmasi.

kengaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ilgari surilgan masalalarga asosan, tarmoq va hududlarning o'zaro hamkorligiga mas'ul ishchi guruhtuzib, hududlarga chiqqan holda korxonalarning muammolarini hal qilish va qo'shimcha zaxiralarni safarbar etish orqali sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish zarur. Unda asosiy e'tibor, "sanoat klasterlari"ni yo'lga qo'yish masalasiga alohida ahamiyat qaratildi.

Namangan viloyatida to'qimachilik va u bilan bog'liq tarmoqlar, Navoiy viloyatida qurilish va bezak materiallari, Toshkent viloyatida farmasevtika, Toshkent shahrida elektronika va mebel bo'yicha "sanoat klasterlari"ni tashkil etish uchun tadbirkorlik muhiti shakllanganligi ta'kidlandi. Ammo, raqobatbardosh mahsulot chiqarish uchun klasterda ilm, innovatsiya, loyiha, moliya, injiniring va investitsiya tashkilotlari bo'lishi lozim.

Elektrotexnika, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmasevtika, zargarlik buyumlari, qog'oz sanoati, qurilish materiallari, mebel, uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish va boshqa mahalliy sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirishga ko'maklashuvchi yaxlit tizimni yaratish, shuningdek, hududlarning sanoat salohiyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi apparati tuzilmasida shtatlari umumiyligi soni 17 birlikdan iborat bo'lgan Mahalliy sanoatni rivojlantirish va kooperatsiya aloqalari masalalari kotibiyati tashkil qilinib, uning vazifalari quyidagi yo'nalishlardan iborat qilib belgilandi:

- mahalliy sanoatdagi idoralar va xo'jalik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mahalliy sanoatni rivojlantirish strategiyalari va rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish bo'yicha ishini muvofiqlashtirish;
- tarmoqlarning ichki va tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, tarmoqlar va hududlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- hududlarda kichik sanoat zonalari va sanoat klasterlarini ishga tushirish, kichik sanoat va maxsus iqtisodiy zonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni tashkil qilish;
- hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarini tashkil etish.

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 9, Oktyabr 2024

Ushbu vazifalarga asosan, hududiy sanoat klasterni rivojlantirish quyidagilar vazifalarini o'z ichiga olgan dasturga muvofiq amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish;
- muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini ta'minlash;
- hududiy sanoat klasterning faoliyat bo'yicha va sohaviy ixtisoslashuviga muvofiq chet el investitsiyalari hamda mahalliy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari kompleksi.

Xulosa shuki, o'zbekistonda tarmoqlararo klasterlarni shakllantirish asosiy omil sifatida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjalarga asoslanadi. Buning uchun tarmoqlararo klasterlarni tashkil etish eng muhim vazifa sifatida davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylanishi lozim. Shu orqali korxonalar va ular tarkibiga kiruvchi bo'limlarda mahsulot ishlab chiqarish jarayoni samarali tashkil etiladi, ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiyalashga asoslanadi, bozor konyunkturasini hisobga olgan holda, yuqori daromad olish imkoniyatini yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xankeldiyeva G.Sh., Shakirova Y.S. To'qimachilik sanoati korxonalarida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish. Monografiya. Farg'onasi: Al-Ferganus, 2021. - 61 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-йил 12-dekabrdagi "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-205-soni Farmoni. Mənbə: <https://lex.uz/uz/docs/-6692968>
3. www.lex.uz